

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

ZARDUSHTIYLIK DININING ASOSI BÔLGAN "AVESTO "

Bobonazarova Dilfuza Abdusharipovna

Xorazm Viloyati Yangiariq tumanidagi 18-son umumiy o'rta ta'lif maktabining tarix fani o'qituvchisi.

Anatatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda Zardushtiylik dinining rivojlanishi ,zardushtiylik kitobi haqida ma'lumot va dinnin mohiyati , Zardusht tomonidan kitobning yozilishi ,dindagi yovuzlik va yaxshilik xudolar haqida sôz yuritiladi.

Annotation: This article discusses the development of the Zoroastrian religion in our country, information about the Zoroastrian book and the essence of the religion, the writing of the book by Zoroastrian, evil and good gods in the religion.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития зороастрийской религии в нашей стране, сведения о книге зороастризма и написании зороастрийской книги, написании зороастрийской книги, злых и добрых богах в религии.

Kalit so‘zlar: Zardush , Avesto , Vaxsh, Yasht ,Visparad , Vendidad ,Bundaxash.

Kirish qismi:

«Avesto» – jahon madaniyatining, jumladan, Markazi Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Avesto (parfiyoncha: apastak – matn; ko‘pincha "Zend-Avesto", ya’ni "tafsir qilingan matn" deb ataladi) – Zardusht dinining Muqaddas kitoblari to‘plami.

Zardusht diniga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi sifatida Yagona Tangriga topinish shu ta’limotdan boshlangan. Bu kitob tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turadi. «Avesto»da tilga olingan joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, uning Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan. Shu asosda uning vatani Xorazmdir degan qarash mavjud.

Asosiy qismi:

«Avesto» to‘rt qismdan iborat:

Yasna («Diniy marosimlar»),

Yasht (ma’no jihatdan Yasnaga yaqin),

Visparad («Barcha Ilohlar haqidagi kitob»),

Vendidad («Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi»).

Yasna tarkibiga kirgan madhlar «Gatlar» (ayrim manbalarda «gohlar») deb nomlanib, ularni Zardushtning o‘zi yozgan deb taxmin qilinadi. Gatlar tarkibida Jamshid (Yima), Gershasp, Afrosiyob (Alp Erto‘nga) kabi afsonaviy qahramonlar hayoti lavhalar uchraydi.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

«Avesto» insoniyat sivilizatsiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etgani uchun jahon olimlarining e'tiborini tortgan.

Özbekiston Respublikasi Hayr bilan Sharr (yaxshilik va yomonlik) o'rtasidagi kurash davri bo'lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Ahuramazda g'alaba qilib, ezgulik salta-nati barqaror bo'ladi, o'lganlar tiriladi. A.ning axloqiy-falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu amal" Muqaddas uchlik (axloqiy triada)da o'z ifodasini topadi. Zardusht izdoshlarining ibodat oldidan aytildigan niyati, so'zları shu 3 ibora bilan boshlanadi. A. o'zbek, umuman O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madani-yatlarini o'rganishda muhim va yagona manba. "Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrgo'zaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir" (I.A. Karimov, "Adolatli jamiyatsari". T., 1998, 39–40-betlar). O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan YUNESKO Bosh konferensiyasi 30-sessiyasi "Avesto" yaratilganining 2700-yilligini dunyo miqyosida nishon-lash haqida qaror qabul qildi (1999-yil noyabr). "Avesto"ning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o'rnini hisobga olgan holda hamda yuqoridagi qarordan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror e'lon qilingan . Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, A. O'rta Osiyoda, xususan Xorazmda miloddan avvalgi 1-ming yillikning 1-yarmida vujudga kelgan. A.da keltirilgan geografik ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Mac, xudo yaratgan o'lkalar sanab o'tilar ekan, boyligi va ko'rakligi jihatidan qadimgi Xorazm, Gava (Sug'd), Marg'iyona (Marv), Baqtriya (Balx) birinchi bo'lib tilga olinadi, Orol dengizi (Vorukasha yohud Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) tavsiflanadi. A.dagi xalqning dastlabki vatani Sirdaryo, Amudaryo etaklari va Zarafshon vodiysi bo'lган. A. uzoq vaqt mobaynida shakllangan. Unda keltirilgan ma'lumotlarning eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi 2-ming yillik oxiri – 1-ming yillik boshiga oid bo'lib, og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tib kelgan. Keyingi asrlarda tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar va hokazo qo'shilib borgan. A.ni Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan. Dastlabki yozma nusxasi esa 12 ming mol terisiga bitilgan deb rivoyat qilinadi. U Persepolaa saqlangan. Aleksandr (Makedoniyalik Iskandar) Eronni zabit etganda, bu nusxa kuydirib yuborilgan. Arshakiylardan Vologes I davri (51–78)da qayta kitob qilingan, lekin u saqlanmagan. Sosoniyalar davri (3–7-asr)da yaxlit kitob holiga keltirilgan. A. 21 nask (qism)dan iborat bo'lган. A. hajmi katta kitob bo'lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida foy-dalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli – "Kichik A." (Xurdak A.) yaratilgan.

"Avesto" qayerda paydo bo'lgan? Bu savol azal- azaldan olimlarni juda qiziqtirib kelgan. Lekin olimlar buning ham uddasidan chiqdilar, ya'ni uni qayerda paydo bo'lganligini aniqladilar. Eng qadimiy, mo'tabar qo'lyozma Xorazmda vujudga kelgan. Avestoshunos olimlarning aniqlashicha, Eron, Ozarbayjon, Afg'oniston va O'rta Osiyo

xalqlarining birinchi yodgorliklaridir.”Avesto” da nimalar haqida ma’lumot berilgan degan savol tug’ilishi mumkin? Avvalambor bu kitobda hozir aytgan xalqlarning madaniyati, urf-odatlari, tabiatni va ko’plab fikrlarini bayon etilgan. Bu kitob eski pahlaviy ya’ni sanskrit tiliga yaqin bo’lgan tilda bitilgan . Kitob boshqa tillarga juda ko’plab tarjima qilingan va “AVESTO” kitobini o’rganishga ya’ni qiziqishga olib keldi. “Avesto”dagi ko’plab va muhim ma’lumotlar asosan o’g’zaki tarzda avloddan – avlodga o’tib kelgan .Ma’lumotlarga qaraganda, bu kitob ahomoniylar sulolasiga poytaxti Sheroz yaqnidagi Taxti Jamshidda saqlangan . “Avesto” dagi ma’lumotlarning qadimgi qismi eramizdan avvalgi 3000 – 2000 yillarga tegishli deb taxmin qiladi olimalar”. Podshoh Doro Ibn Doro xazinasida 12 ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan. Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) esa bu yurtga bostirib kelgan va otashxonalarini vayron qilib, Zardusht diniga e’tiqod etuvchi xalqni taziyq ostiga olib , ularni o’ldirib yuboradilar.Shuning uchun ham “Avesto” ning 3/5 qismi yo’qolib ketdi. Lekin, Iskandar(Aleksandr Makedonskiy) falsafa, tibbiyat, astronomiyaga tegishli qismini saqlab qolgan. Bu qo’lyozmalardan keng foydalanilgan va uni yunon tiliga tarjima qildirgan. Iskandarning hukmronligi tugagach , miloddan avvalgi 250-yilda Arshohiyalar davrida “Avesto” yana yo’qotilgan qismlari tiklangan va yangi matnlar bilan to’ldirilgan. Bu voqeа eramizdan avvalgi III asrida sosoniylar podshosi Shopur davriga kelib, to’la kitob holiga keltirilgan. Eron va Turon zaminining bosib olinganligi sababdan zardushtiylik dini ta’qibga olindi va islom dinini joriy etishga kirishildi. Islom dinini qabul qilishga majbur etilgan va qabul qilmaganlari esa Hindistonga qochib ketib shu yerda jon saqlaganlar. Hammamizga ma’lumki , hozirda ham Hindistonning Bombay va Gujarat viloyatlarida yashaydigan aholi bu dingga e’tiqod qiladi va zardushtiylikka amal qiladilar . Ular “Avesto”ning bir qismini saqlab kelmoqdalar. Bu kitob birinchi bora 30 ta kitobdan , keyin 21 ta kitobdan iborat edi. Bizgacha bu kitobning 4 tasi saqlanib qolgan. Bu kitoblar quyidagilar: 1.“Vadovdot” (Vendidat) deyiladi. Bu kitob 22 bobdan iborat bo’lgan holda, payg’ambar Zardusht va xudo Ahura Mazdalarning savol- javoblari bayon etilgan .

Ikkinci kitob esa , “Yasna” deb ataladi . Bu yerda asosan Zardushtning xatlari va 72 ta ”Ha” degan bashoratlardan iborat.Uchinchi kitob, “Vispart” deb nomlanadi va 24 bobdan iborat. U pand- nasihatlar yig’indisidan tashkil topgan.

To’rtinchchi kitob esa, “Bundaxash” (YASHTA) deyiladi . bunda Ahuramazdaning zolim kuchlarga qarshi kurashda ulug’lovchi 22 ta qo’shiqdan tashkil topgan.

“Avesto”ko’p xudolikdan yakka xudolikga o’tish davrida vujudga kelgan. Bu kitobda aytishicha olam ikki asos, ikki ibtido, ya’ni yorug’lik va zulmat, yaxshili va yomonlikning kurashishidan iborat deyiladi.

“Avesto” bizning qadim tariximiz va ma’naviyatimiz demakdir. Shu munosabat bilan

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi UNESKO bosh konferensiyasining 1999 – yil noyabr oyida bo'lib o'tgan sessiyasi qaroriga muvofiq, 2001 – yilning oktabr oyida “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligi nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi.

O'zbekistonda ham “Avesto” ni o'rganish davom etmoqda.

“Avesto” kitobini o'rganish , tajribalar bizga juda ko'p ma'lumotlarni oshkora qilib berdi. Shunga binoan, Prezidentimiz shunday fikr bildirdilar :“Avesto” bundan XXX asr oldin muqaddam ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir”.

Avesto haqidagi eng muhim tadqiqotlardan biri “Din amallari” asarlarida aytilib o'tilgan. Bunda Avestoning 21 kitobi mazmuni sharhlab berilgan. Bu sharhlar shulardan iborat:

- savodli ishlar yo'riqnomasi;
- diniy marosimlar va rasm – rusmlar qoidasi;
- zardushtiylik ta'limoti asoslari;
- dunyoning Ahura-Mazda tomonidan yaratilishi;
- oxirat kuni va undagi hisob – kitob;
- falakiyat;
- ijtimoiy – huquqiy qonun – qoidalari;
- zardushtning tug'ilishi va bolaligi;
- haq yo'lini tutishi;
- jamiyat a'zolarining haq – huquqlari;

- dev, jinlar kabi yozuv kuchlarga qarshi o'qiladigan duolar, amallar.Avesto o'sha davrlar tarixi , madaniyati haqida ma'lumot beruvchi qomusiy asardir . U pahlaviy tiliga tarjima qilingan va unga sharhlar yozilgan. Unga yozilgan sharhlar “Zend Avesto“ nomi bilan mashhur. Markaziy Osiyoga arablar kirib kelishi bilan zardushtiylik diniga sig'inuvchilar taqib ostiga olingan. Shu tarzda u asta – sekin O'rta Osiyo xalqlari orasida iste'moldan chiqa borgan.

Eron xalqlarining eng qadimgi mitralari Mitra, Anaxita, Osha va Ardvissuralar to'g'risidagi miflarning mazmunlari, sarguzashtlari haqida turli va mattiqiy dostonlar mavjud. Ulardan birida Mitra haqida quyidagicha dostonlar yaratilgan:

Mitra qo'sh otli aravasida, musallah holda goh el –yurtni balo-qazolardan asrar va vatanparvarlik ko'rsatar, goh Ahuru-Mazdadan mahf etar va hammani xursand etar edi.

Xulosa qism:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Avesto faqat Ôzbekiston haqidagi kitob emas ,

U butun bir örta Osiyo davlatlari xaqida töliq ma'lumot beruvchi kitobdir.Shu kabi yurtimiz tarixiga oid kitoblar ichda eng mashxur kitob bu Avesto. Unga faqat din yozilgan emas har sohada ôqib ma'lumot olish mumkin . Ijtimoiy va huquqiy ma'lumotlar ham bor.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Rayhon Beruniy. Al-osorul-boqiya an-al qarunul-holiya.-T.:1969
2. Abu Bahr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: 1966
3. A. Qayumov. Qadimiyat obidalari. – T.: 1971
4. H. Homidov. «Avesto» fayzlari. – T.: 2001
5. N. Rahmonov. «Avesto»ning paydo bo‘lishi. – «O‘zbekiston ovozi» gaz., 2001, 26-may.
6. N. Rahmonov. «Avesto»: Zamin, vatan demakdir. – «O‘zbekiston ovozi» gaz., 2001, 25-sentabr.